

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MANG'ITLAR DAVRIDA TASAVVUFNING BUXORO MADANIYATI RIVOJIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ СУФИЗМА НА РАЗВИТИЕ БУХАРСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПЕРИОД
МАНГИТАTHE INFLUENCE OF SUFISM ON THE DEVELOPMENT OF BUKHARA CULTURE
DURING THE PERIOD OF MANGITS

Rajabova Rohila Zakirovna

Buxoro davlat universiteti, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009 0006 4738 6934

Annotatsiya

Bugungi kunda tasavvuf ta'limotining tarixiy shakllanish jarayonlarini tadqiq etish, tasavvufga oid manbalarni xolisona o'rganish barobarida uning bugungi globallashuv sharoitida insonlar hayotida tutgan o'rnini ko'rsatib berish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, diniy va dunyoviy qarashlar uyg'unligidan iborat tasavvuf ta'limotining to'g'ri talqini bir jihatdan turli mutaassib ekstremistik g'oyalarga qarshi turishga xizmat qilsa, uning noto'g'ri talqini turli tariqatchilik harakatlariga asos yaratib beradi.

Аннотация

Сегодня, наряду с исследованием исторических процессов формирования суфизма, объективным изучением источников, связанных с суфизмом, важно также показать его место в жизни людей в современных условиях глобализации. Ведь если правильное толкование суфизма, представляющего собой совокупность религиозных и светских взглядов, служит противостоянию различным фанатичным экстремистским идеям, то его неправильное толкование создает почву для различных сектантских течений.

Abstract

Today, along with researching the historical formation processes of Sufism, objectively studying sources related to Sufism, it is also important to show its place in people's lives in today's globalization conditions. After all, if the correct interpretation of Sufism, which is a combination of religious and secular views, serves to oppose various bigoted extremist ideas, its incorrect interpretation creates the basis for various sectarian movements.

Kalit so'zlar: tasavvuf, tariqat, naqshbandiya, naqshbandiya-mujaddidiya, ijtimoiy tenglik, adolat, bag'rikenglik, javonmardlik, shayx, murid, murshid.

Ключевые слова: суфизм, тарикат, накшбандийа, накшбандия-муджаддиция, социальное равенство, справедливость, толерантность, молодость, шейх, мюрид, муршид.

Key words: sufism, tariqat, naqshbandiyya, naqshbandiyya-mujaddidiya, social equality, justice, tolerance, youthfulness, shaykh, murid, murshid.

KIRISH

Uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilgan Movarounnahr tasavvuf ta'limoti XVIII asrdan boshlab islom mamlakatlarida mutaassib g'oyalar asosida shakllanib, bugunga qadar tobora avj olib borayotgan salafiylik, jihodchilik hamda boshqa oqim va harakatlarga qarshi turishda ma'naviy to'siq vazifasini bajarib kelgan.

Movarounnahr tasavvufi boshqa yurt tasavvuf ta'limotlaridan o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va yo'nalishlari, usul va uslubi bilan farqlanib turgan. Zero, tarixan Turon zaminida shakllangan bag'rikenglik tamoyillariga yo'g'rilgan o'lka tasavvufi asrlar davomida turli din, millat va madaniyat vakillari yonma-yon totuv yashab kelishlariga o'z hissasini qo'shib kelgan. Ayniqsa, Movarounnahrdagi yirik tariqat hisoblangan naqshbandiyani boshqa tariqatlardan farqlab turuvchi, tarkidunyochilik emas, ijtimoiy faol hayot tarziga undovchi «Dil ba yoru, dast ba kor» shiori ostida shakllangan ilmiy-ma'naviy merosini diqqat bilan o'rganish qadriyatlarimizga yuksak e'tibor berilayotgan bir vaqtda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, naqshbandiya tariqatida yuksak ma'naviy mezonlar, insoniy fazilatlar haqidagi ta'limotning kundalik hayot va oddiy insonlar turmush tarziga yaqinlashtirilgani uning tadrijiy taraqqiyotiga hamda har qanday zamon va makonga mos kelishiga zamin yaratgan deyish mumkin.

Har bir din o'z izdoshini millati, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, birdamlikka, o'zaro yaxshilik qilishga undaydi. Jumladan, islom dinidagi "jamoatdan ajralmaslik", "odamlarning yaratgan oldidagi tengligi" g'oyasi buning yorqin misolidir. Barcha insonlar jinsi, irqi, rangi, ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay, barobar hisoblanadi. Bu haqda hadislarida: «Insonlar taroq tishlari kabi tengdirlar. Arabning boshqa xalqlardan, oqning qoradan, erkakning ayoldan ustunligi yo'q. Faqat, taqvoda xolos», deyilgan[1:21].

Islom dini teng huquqlilikka targ'ib qiluvchi ta'limot ekanligi borasida ko'p manbalarda ta'kidlangan. Jumladan, mang'itlar davri manbalarida azon va namoz masalasida ko'p ma'lumotlar keltirib o'tilgan bo'lib, manbalarda masjidda azon chaqirilishi bilan Allohga ibodat qilmoqchi bo'lganlar darhol to'planishlari va ularning kim o'zarga emas, ibodatga shosholishlari tahsinga sazovor amallardan ekanligi ta'kidlanadi. Haqiqatda, musulmonlar bir kunda besh vaqt bir safda, yonma-yon turib namoz o'qiydi. Bir imomga iqtido qilib, ruku' va sajda qiladi. «Islomiy tenglik namozda eng chiroyli suratda namoyon bo'ladi»[2:48].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Islom dinining turli millatga mansub shaxslarni birodarlik tizimida birlashtiruvchi amaliy kuchligini boshqa ibodatlar va amallardan ham ko'rish mumkin. Musoxon Dahbediyning «Navodir ul-maorif» asarining to'rtinchi - "دیمر و یری قتی ذکر حق در" «Dar zikri haqiqati piri va muridi» faslida ibodat va ilm olishlikda yolg'izlikni emas, balki jamoa bo'lishlikka targ'ib qiladi. Musoxon Dahbediy: [3:164]

"طریقت ما گفتگوست و خوبی در جماعت است. نفع گفتگو با جماعت همین است که منفعت متقابل است."

«Bizning tariqatimiz suhbatdur va xayriyat jamiyatdadur. Jamiyat suhbatda bu shart bilanki bir-biriga naf' bo'lur va agar jami bu yo'l soliklari bir-biri bilan suhbat tutsalar, unda ko'p xayru barokat bo'lur», deb ta'kidlagan. Suhbat usuli, uning ta'kidlashicha, jamoa bilan birga bo'lish, fikr almashish va hamroh tutinishni taqozo etadi va bunda yolg'izlikdan ko'ra jamoatning foydasi katta ekanligi uqtiriladi. Bu usul esa, yolg'izlik va xilvatni yoqtirmaydi va insonni hamjihatlikka da'vat etadi, unga yaxshilik, naf' va manfaat keltiradi. Musoxon Dahbediy asarning ushbu faslida piru murid munosabatlari tasavvuf talablaridan biri ekanligi, muridning shaxsiy sifatleri va faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. U muridning shaxsiy xususiyatlari va odob-axloqidan tashqari, unga tegishli bo'lgan yana oltita ruknni ko'rsatib o'tadi. Bular کردن اطاعت، گفتن راست، vafoli bo'lmoq, nasihatga quloq solmoq, sirni saqlamoq va dilozorlik qilmaslikdir»[3:168].

Musoxon Dahbediy «Navodir ul-maorif» asarining «Dar zikri haqiqati piri va muridi» faslida shayxning qanday bo'lishi kerakligi, u hammaga haqiqat ko'zi bilan qarashi va shu bilan birga u hamma muridlarini teng va barobar ko'rish lozimligi haqida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, "کند یم مراقبت مارانیب از یواقیع ی زندگی در که است ی پزشک مانند تصوف در خیش" «Shayx tasavvufda xuddi hayotda bemorlarga qaraydigan tabib kabi»[3:168]. Tabib kishilarning tanasidagi xastaliklarni muolaja qilsa, shayx ularning qalblaridagi xastaliklarni muolaja qiladi. Shayx qalblarning ilmdan, amaldan, holdan, yaqindan, nurdan bebahra bo'lganini ham, ilmga, amalga, holga, yaqinga va nurga to'lganini ham yaxshi bilishi kerak. Shayx ko'p gunoh va g'aflat tufayli qotib qolgan qalbni ham, taqvo, xushu', xuzu' ila muloyim bo'lgan qalblarni ham bilib, ularning har biriga o'ziga xos muomala qiladigan usta murabbiydir. Musoxon Dahbediy tariqatda hatto pir va muridlikda ham birlikka, birdamlikka va bag'rikenglikka buyuradi.

«Bag'rikenglik» so'zi deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib «bag'rikenglik» chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hammadlik kabi ma'nolarga ega deyish mumkin. Tasavvufdagi bag'rikenglikni shunday tushunish lozimki, undainson tugul hayvonga ham ozor berish yoki nabototga besabab zarar yetkazish yo'q. Hattoki, urush bo'lib turgan sharoitda, inson hayotiga xavf tahdid solayotgan vaziyatda ham bog'rog'larni bekorga yo'q qilishdan, daraxtlarni behuda kesishdan qaytarilgan. Tasavvuf shayxlarning fikriga ko'ra, «Bir soatlik insof-adolat bir umrlik nafl ibodatlaridan afzaldir. Har ikki olamda insofu adolatdan o'tadigan futuvvat yo'q»[4:73]. Futuvvatni quyidagi misralar orqali sharhlash o'rinlidir: «Futuvvat ko'ngil ko'zini ravshan etadi, jon bog'ini safo quyoshi bilan parvarish qiladi»[5:212]. Bag'rikenglik so'zi «Javonmardlik» atamasining zamonaviy talqini bo'lib, ahdda vafo qilishga, barchani o'zidan afzal bilish va o'zini hech kimdan yuqori qo'yimaslikka o'rgatadi. Tasavvuf

ta'limotiga asoslanib, ta'kidlash mumkinki, javonmard odamning so'zi ham, ishi ham, niyati va fikrlari ham pok bo'lishi lozim.

Tasavvufga oid manbalarda keltirilishicha, javonmardlar muayyan tartib, qoidalarga rioya etgan, nima ish bilan shug'ullanmasin, mardlik va oliyjanoblik namunasini ko'rsatgan[6:42]. Ularning har birini o'z jamoasi, piri ustoz, ta'lim beruvchi murshidi, to'planadigan joyi bo'lgan. Pirga qo'l bergan va ustoz oldida ahdu paymon qilib, mardlik belbog'ini beliga bog'lagan javonmard shogird bir umr ahdigga sodiq qolishga intilgan. Mang'itlar davrida ham javonmardlik mavjud bo'lib, oliyjanoblik, ijtimoiy ideallik va insoniy fazilatlar, jasurlik ularga xos xislatlar bo'lgan va ularning g'oyalari Movaraunnahr ijtimoiy-siyosiy hayotiga futuvvat ta'limotining kirib kelishiga asos yaratgan. Futuvvatga xos xususiyatlar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi omma tomonidan o'zlashtirilib, qayerda futuvvat g'oyalari yoyilgan bo'lsa, u turli xil ijtimoiy guruhlariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan va hunarmandlar orasida ham yoyilgan va shu sababli shaharlarda, asosan, hunarmandchilik ustaxonalarida javonmardlik arkonlari joriy etilgan. Futuvvat-javonmardlik harakati vositasida insonlar axloqi tarbiyalanib, bosqichma-bosqich komil inson darajasiga yetkazilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mang'itlar davrida insonlar o'rtaqidagi tabaqalanishga islom dini ulamolari va tariqat peshvolari qarshi bo'lgan va mintaqadagi jamiyatni birlikka, birdamlikka chaqirgan va teng huquqlilikka da'vat qilgan. Tasavvuf ilmida va tariqatda bunday bag'rikenglik va birdamlik asosiy g'oya va mafkuraning negizi bo'lgan. Bag'rikenglik tasavvufda insonning ma'naviy kamolot sari yuksalishida va jamiyatning tinchligini ta'minlashda hamda insonlararo birodarlik ruhini yoyilishida eng asosiy tamoyillardan biri bo'lganligini hozirgi zamon tasavvufshunoslari ham ta'kidlab o'tmoqda[7:86].

Islom dini ta'limotiga ko'ra, Alloh bandalarini bir-birlari bilan tanishib, tinch-totuv va ahillikda hayot kechirishga buyurgan. Islom dinining muqaddas kalomi Qur'oni karimda:

حَبِيبٌ عَلَيْهِمُ اللَّهُ إِنَّكُمْ أَنْتَقَدَ اللَّهُ عِنْدَ أَكْرَمَكُمْ إِنَّ لَتَعَارَفُوا وَقَبَائِلَ شُعُوبًا وَجَعَلَكُمْ وَأَنْتَى ذَكَرَ مِنْ خَلْقَكُمْ إِنَّا لَأَنسَاءُ يَأْتِيهَا

“Ey, insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo'ydik. Albatta, Alloh nazdida (eng azizu) mukarramrog'ingiz taqvodorrog'ingizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir”[8], deb marhamat qilingan.

Yuqoridagi oyatning mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, insoniyatning asli bir: hamma Odam Ato va Momo Havoda tarqalgan. Ayni chog'da, Alloh taolo ularni turli xalqlar va qabilalarga ajratib qo'ygan. Insonlar turli xalq va qabilalarga bo'linishining sababi o'zaro tanishish, hamkorlik qilish va bir-birlariga nisbatan adolatli bo'lishlikdir. Islom dini boshqa din vakillariga ham hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rgatgan. Ma'lumki, Islom o'zidan oldingi samoviy dinlarni ehtirom qilish bilan cheklanmay, o'sha din ahllariga cheksiz muruvvat ko'rsatgan. Ularning haq-huquqlarini qonun bilan mustahkamlab qo'ygan. Asrlar davomida bu qoidalarga amal qilib yashagan musulmonlar oralarida yashaydigan ahli zimmaga muruvvat ko'rsatib, butun insoniyatga o'rnak bo'lib kelishgan.

XULOSA

Qaysi jamiyatda diniy bag'rikenglik tamoyillari hayotda o'z talqinini topsa, o'sha jamiyatda o'zaro hurmat va samimiyat qaror topib, barcha insonlar tinch va osoyishta hayot kechiradi. Tinchliksiz taraqqiyot va farovonlik bo'lmagani kabi diniy bag'rikengliksiz tinchlik barqaror bo'lmaydi. Tasavvufiy manbalarda o'zga din vakillari bilan bo'ladigan kundalik aloqalarga alohida urg'u berilgan. Xususan, qo'shnichilik aloqalari, ahli kitoblarning taomidan iste'mol qilish, ularga uylanish mumkin ekani, ularni g'iybat qilish ham gunoh ekani, moliyaviy aloqalar o'rnatish, ulardan qarz olish, qarz berish, ularga omonat qo'yish, musulmon bo'lmagan kishini maqtash kabi masalalarda mutasavviflar o'z g'oya va qarashlarini Qur'oni karim va hadisi shariflardan misollar keltirib asoslab bergan.

So'nggi yillarda islom nomidan turli buzg'unchilik, odamlar orasida xavf va qo'rquv uyg'otish, tinch aholi qonini to'kish, mol-mulkiga ziyon yetkazish kabi qabih ishlarni amalga oshirayotgan ayrim toifalar ko'payib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu haqda “Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz”, degan edi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Islom shariatida o'zga din vakillari bilan inoq munosabatda bo'lishga oid munosabatlar aniq belgilab berilgan. Buyuk allomalar o'zga din vakillari bilan qanday munosabatda bo'lish lozim ekanini o'rgatib, o'zlari bunda barchaga namuna bo'lgan. Hozirda jahonda yuz berayotgan diniy toqatsizlik holatlari boshqa din vakillariga o'ta murosasizlik, bir din ichidagi mojaroli munosabatlar hamda dunyoviy tuzumga qarshi kurash yoki xalqaro darajadagi qarama-qarshiliklar bilan bog'liq bo'lib turibdi. Zero, barcha dinlar qatori Islom o'zidan avvalgi dinlarni (yahudiylik, nasroniylik) e'tirof etibgina qolmasdan, ularning madaniyat va an'analariga ehtirom bilan qarashga hamda ular bilan adolatli munosabatda bo'lishga buyurgan. Islom doimo barcha din va e'tiqod vakillarini adolat o'rnatishda, xavfsizlikni ta'minlashda va begunoh odamlarni qoni to'kilishini oldini olishda hamkorlik qilishga chaqiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маърифат зиёси / Таҳрир ҳайъати: А. Мансур, И. Усмонов. Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2015. –Б. 21.
2. Сўфи Оллоёр. Маслак ул-муттақин. Бухоро давлат музей қўриқхонаси. № 26307/11. –Б. 48 а.
3. Мусохон Даҳбедий. Наводир ул-маориф. Бухоро давлат музей қўриқхонаси. № 27806/11. –Б. 164 б.
4. Юсуф Қорабоғий. Рисолаи чамания. Бухоро давлат музей қўриқхонаси. № 23005/11. –Б. 73 б.
5. Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. Т.: Фан, 2021. –Б. 212.
6. Салоҳ бин Муборак ал-Бухорий. Мақомоти Нақшбандийя. Бухоро давлат музей қўриқхонаси. №27772/11. –Б. 42 б.
7. Necdet Tosun. Türkistan dervişlerinden yadigar (Orta Asya Türkçesyle yazılmış tasavvuf eserler). Istanbul. 2011. –Б. 86.
8. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси - Ўзбекча таржима, таржимон: Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳужурот, 13.